

**“NASOYIM UL-MUHABBAT” TAZKIRASIDA TILGA OLINGAN TURKIY  
SHAYXLAR**

**Sulaymonova Saodatxon**  
*Fardu Filologiya fakulteti 2-kurs  
talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarini, asosan, kimning tazkirasiga ergashib yozganligi va bu asarda tilga olingan boshqa tazkiralarda keltirilmagan turkiy shayxlar hamda valiylik maqomiga erishgan shoirlar va asarda keltirilgan 100 dan ortiq turkiy mashoyixlar haqidagi ayrim hikoyatlar tahsil qilingan hamda asar umumiy jihatdan tabdil qilingan

**Kalit so`zlar:** *tazkira, shayx, mashoyix, mutasavvuf, hamd, na’t, muhandis, majoziy ishq, ilohiy ishq*

**Sulaimanova Saodatkhan**  
*Fardu Faculty of Philology, 2nd year  
student*

**Annotation:** In this article Alisher Navoi wrote the work "Nasayim ul-Muhabbat" mainly following whose tazkiras and some stories about Turkish sheikhs not mentioned in other tazkiras and poets who reached the status of guardian and more than 100 Turkish mashayikhs mentioned in the work are analyzed. changed in general

**Key words:** *tazkira, shaykh, mashayikh, mystic, praise, nat, engineer, metaphorical love, divine love*

**Süleymanova Saodatkhan**  
*Fardu Filoloji Fakültesi 2. sınıf  
öğrenci*

**Açıklama:** Bu makalede Alisher Navoinin, esas olarak diğer tezkirelerde adı geçmeyen Türk şeyhleri ve veli statüsüne ulaşmış şairler ile eserde adı geçen 100'den fazla Türk meşayihinin tezkireleri ve bazı hikayeleri analiz edildi ve genel olarak görüp çıktı.

**Anahtar kelimeler:** *tezkire, şeyh, meşayih, mistik, hamd, nat, mühendis, mecazi aşk, ilahi aşk*

Bilamizki, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyin ul-futuvvat” asari Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot il-quds” tazkirasingin tarjimasi hisoblanadi. Lekin Navoiy Jomiyning asariga erkin, ijodiy munosabatda bo`lib, asarda keltirilgan ma'lumotlarni to`ldirib yoki qisqartirib, 618 ta shayxlar sonini 770 taga yetkazgan. Shoirning tazkira yaratishidagi maqsadi asarning muqaddimasida o`zi ta'kidlaganidek: "...Andoqki, ul sharif kitobning fihrastida ul Hazrat nuvvira marqaduhu aning kayfiyatini sharh bila zikr qilibdurlar. O`qug'onlar ko`rmish bo`lg'anlar va o`qumag'onlar o`qusalar, ko`rgaylar. ...Doim oshufta xotirga kelur erdi va parishon xayolg'a

evrulur erdikim, ul kitob alfozi forsiydr, arabiyg`a payvasta va iborati ishorat ahli tiliga vobasta va ul tillar vuqufidin bahravarlar va ul iboratu ishoratidin bexabarlar ul alf Ozdin o`z qobiliyatları xurdida va ishtig`ollari muqobalasida naflar toparlar va fayz elturlar”.<sup>1</sup> Bu so`zlardan ko`rinib turibdiki, Navoiy fors va arab tilidan bexabar xalqimizga osonlik yaratish maqsadida ushbu asarga qo'l uradi. Asosan, asarni yaratishda Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asariga tayangan. “Jomiy o`z tazkirasini yozishda, asosan, Sullamiy, Imom Yofi`iy hamda Ansoriylarning tazkiralari tayangan. Navoiy esa, Shayx Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridagi 19 nafar mashhur avliyo, Shayx Farididin Shakarganjdan so`ng Hindistonda yashab o`tgan 31 shayx, shuningdek 100 dan ortiq turk mashoyixlari haqidagi ma'lumotlarini qo'shimcha tarzda keltirgan”.<sup>2</sup>

Asar an'anaviy tarzda Allohg'a hamd va na'tdan boshlangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, Navoiy tazkirasida arab va fors mutasavvuf olimlari, shayx-u mashoyixlaridan tashqari 100 dan ortiq mashoyixlarni tilga oladi. Biz uchun ularning eng e'tibor tortadigan tarafi xususiyatlari va karomatlari bilan birga kasb- korlari, tug'ilgan yerlari, vafot etgan yerlari hisoblanadi. Chunki turkiy ijodkor, mutasavvuf olimlar to`g`risidagi ko`plab ma'lumotlarni biz - adabiyotimiz, aynan, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridan olganmiz desak mubolag'a bo`lmaydi. Jumladan, tazkiraning muqaddimasidagi “Bu toifaning a'molu af'ol va muomilotu riyozotidin ba'zini zikr qilmoq” qismida turkiy adabiyotdagi qasida janrining asoschisi Sakkokiy xususida shunday yozadi.”Shayx Muhammad Sakkok q.s. kim, o`z zamoni mashoyixining yagonasi ermish, pichoqchilikka mansubdir”. Bu so`zlardan anglashiladiki, Sakkokiy bejiz “Sakkokiy” taxallusini olmagan, u pichoqchi bo`lgan va o`z zamonasi mashoyixlari ichida alohida o`rin egallagan. Shu qismda bir tariqat asoschisi Bahouddin Naqshbandiy haqida ham so`z boradi:”Va mutaaxxir mashoyixdin zamonining yagonasi Hazrati Xoja Bahouddin Naqshband q.r.a.ki, kimxo naqshini bog`lamoqqa mashhurdurlar. Va soyir mashoyixi kibordin ham ko`p halol luqma kasbig`a muzdurluq qilibdurlar, o`tin toshibdurlar va halol luqma bu ishda kulliydurki, ondin fayzu ma'rifati zoyanda bo`lur” ushbu jumlalarni o`qishimiz bilan xayolimizga “Dil bayoru dast bakor” ya'ni “Ko`ngling Allohda, qo`ling mehnatda bo`lsin degan Naqshbandiyning go`zal so`zlari keladi.

Tazkirada termizlik muhandis va mutasavvuf Muhammad ibn Hakim Termizi shunday ta'riflanadi:”Ikkinci tabaqadindur. Kuniyoti Abu Abdullohdur. Mashoyixi kibordindur va Abu Turob Naxshabiy va Ahmad Xuzravayh va ibn Jallo bilan suhbat tutubdur va ko`p hadisi bor va zohir karomoti va tasnifi dag'i bor...”. Shu qatorda Muhammad ibn Hakim Termiziyning shogirdi Abubakr Varroq Termiziy q.t.r. haqida ma'lumot berilgan:”Ikkinci tabaqadindur. Oti Muhammad ibn Umar Hakim Tirmiziy. Asli Tirmizdindur. Qabri ham andadur. Ammo Balxda bo`lur emish... Va “Tavrot” va “Injil” va “Qutbi rsmoniy”ni o`qubdur va she'r devoni ham bordir”.

Asardagi 137-mashoyix Abulqosim Hakim Samarqandiy q.t.s.dir. U haqida Navoiy quyidagilarni ta'kidlaydi:”Oti Ishoq b. Muhammad Ismoilduo. Abubakr Varroq bila suhbat tutubdur.Yaxshi so`zlari bor: muomalotda va nafs g`aybida va a'mol ofotida. Uch yuz qirq ikkida muharram oyida dunyodin o`tubdur va qabri Chokardiyazadadir”. Keyingi mashoyix sug`dlik Bakr Sug`diy q.t.s..”Samarqandning Sug`didandur. Bu toifadin Abubakr Varroq shogirdi. Ul debdurki, Abubakr Varroq karim kishi erdi. Tengrig`a muzd uchun qulluq

qilmish erdi ta'zim bila qilur erdi". Yana bir mutasavvuf shayx Abu Zarr Termiziy r.t. Uning taqvosi tillarda doston bo`lgan. Ansoriyning ma'lumot berishicha, u o'z hojatini odamlardan emas, faqat Xudodan so'rab oladigan zotlardan bo'lgan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"ga "Nafahot ul-uns"dan ushbu shayx hayotiga bog'liq bobni aynan kiritgan.<sup>3</sup> U quyidagidir:"Xuroson mashoyixidindur. Bu toifadin ba`zi debdurlarkim, biz jam'i edukki, bir-birimiz bila suhbat tutar erdik. Har qaysimizga bir nima keraklik bo`lsa erdi, Abu Zarr qo`pub, namozg`a turar erdi. Tengri ul nimani ham ul zamon yetkurur erdi".

Yuqoridagi mashoyixlar bilan bir qatorda Navoiy farg`onalik va marg`ilonlik bir qancha shayxlar haqida ham so`z yuritadi. Misol uchun, 207-mashoyix Abu Ja'far Farg`oniy r.t.dir:"Oti Muhammad Abdullohdur. Ul debdurki, [Tilning takallumi da'vo qiladi, qalbning tavakkuli ma'no beradi]. Shayx ul-islom debdurki, Abu Abdulloh Boqu dedikim, Abu Ja'far Farg`onin Abu Usmon Hiriyning xodimidir".

"Shayx ul-islom debdurki, Ibrohim Marg`inoniy debdurki, ulcha quloq anglag`oy – ilmdur va ulcha fahm anglag`ay – hokmatdur va ulcha oning bila eshitilgay aning bila anglag`aysen – hayot va tiriklikdir". Ushbu falsafiy fiklar muallifi asarda 276- o'rinda kelgan Ibrohim Marg`inoniy q.s. U demoqchiki, quloq bilan eshitilib anglangan narsa – ilm, ong bilan anglangan narsa hikmat, ham eshitilgan, ham anglangan narsa esa, hayot va tiriklik. Demak inson yashayaptimi, tirikmi, eshitadimi ilm oladi, fikrlayaptimi xulosa chiqara oladi. Sababi inson doimo nimagadir intilib yashaydi, bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bu yerda yana bir nasihat bor, ya'ni inson sen yashayapsanmi, ilm ol, hikmat to`pla, tiriklik g`animat deyilmoqda.

Xulosa qilganda, Navoiyning qay darajadagi ulug' va izlanuvchan, ilmli shaxs ekanligini birligina shu "Nasoyim ul-muhabbat" asaridan ham anglab olishimiz mumkin. Asarning nomlanishi ham o'zgacha, ya'ni "Muhabbat shabadalari". Bu muhabbat majoziy emas, albatta. Aksincha, ilohiy muhabbatga intilgan shaxslar tilga olinganligi uchun hamda Navoiy ham mana shunday ilohiy ishqqa iltilgani sababli asarning nomini "Muhabbat shabadalari" deydi. Bundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, "Muhabbat shabadalari" esgan qalbni Yaratgan go'zal va pok tuyg'ularga makon qilib qo'yar ekan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A.Navoiy."Nasoyim ul-muhabbat". Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.

2.A.Navoiy. "Nasoyim ul-muhabbat". Olimjon Davlatovning nasriy bayoni. Toshkent, "O'zbekiston", 2018, 6-7-betlar.

3."Alisher Navoiy: Qomusiy lug'at" "Sharq" NMAK 2016.

Internet saytlari:

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)